



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

NAVOIY LIRIKASIDA “AYOL” TIMSOLINING IRFONIIY MA’NOLARI

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o’g’li
Farg’ona davlat universiteti, katta o’qituvchi (PhD)
Xursandova O’giloyxon Mo’ydinjon qizi
Farg’ona davlat universiteti, talaba

Annotatsiya

Mazkur maqolada tasavvuf adabiyotining tadrijiy rivojlanishi hamda orifona g’azallarda qo’llanilgan majoziy timsollarning o’ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Alisher Navoiy g’azallarida tasvirlangan ayol uzvlarining tasavvufiy mazmuni lug’aviy va istilohiy jihatdan tahlil qilinib, ularning ilohiy ishq, ma’rifat va ruhiy kamolot bilan bog’liq ma’nolari ochib berilgan. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizning ko’plab namunalarida uchraydigan zohiriy va botiniy ma’nolar shoir baytlari asosida qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari tasavvufiy ramzlarning badiiy-estetik hamda irfoniiy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so’zlar: tasavvuf, irfon, la’l, oraz, dard ahli, majoz, haqiqat, ishq ilohiy.

ИРФАНСКИЕ СМЫСЛЫ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В ЛИРИКЕ НАВОИ

Саидолимов Жавохирбек Бахтиёржон угли
Ферганский государственный университет, старший преподаватель (PhD)
Хурсандова Угиллойхон Муьдинжон кизи
Ферганский государственный университет, студентка

Аннотация

В данной статье рассматривается эволюция суфийской литературы и своеобразие метафорических образов, используемых в арифанских газелях. Анализируются суфийские значения образов женских черт, представленных в газелях Алишера Навои, раскрываются их лексические и терминологические значения. Особое внимание уделяется толкованию внешних и внутренних смыслов, связанных с божественной любовью, духовным познанием и нравственным совершенством человека. На основе поэтических строк проводится анализ символики, широко представленной в произведениях классической литературы.

Ключевые слова: суфизм, ирфан, ла’л, лицо (ораз), люди страдания, метафора, истина, божественная любовь.

THE MYSTICAL MEANINGS OF THE IMAGE OF WOMAN IN NAVOI’S LYRIC POETRY

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o’g’li
Fergana State University, Senior Lecturer (PhD)
Xursandova O’giloyxon Mo’ydinjon qizi
Fergana State University, Student

Abstract

This article examines the development of Sufi literature and the distinctive nature of metaphorical symbols used in mystical ghazals. It analyzes the Sufi meanings of female physical images depicted in the ghazals of Alisher Navoi, revealing their lexical and terminological interpretations. Special attention is given to the exploration of both external and inner meanings associated with divine love, spiritual knowledge, and human perfection. The study also investigates similar symbolic representations found in classical literary works through the analysis of poetic verses.

Keywords: Sufism, irfan, la’l, oraz, people of suffering, metaphor, truth, divine love.

Adabiyotda tasavvuf she’riyati deb nomlangan alohida yo’nalishning paydo bo’lishi VIII asrda yurtimiz sarhadlariga kirib kelgan va insonlar ongiga, hayot tarziga benihoya katta ta’sirini o’tkazgan Islom dini bilan chambarchas bog’liqdir. Bu ta’limot tadrijiy ravishda o’zida bir qancha bosqichlarni namoyon qildi va she’riyat bilan mujassamlasha bordi. Xususan, turkiy xalqlar adabiyotida bu yo’nalishning eng cho’qqisi XV asrning ikkinchi yarmiga – Alisher Navoiy davriga to’g’ri keladi. Tabiiyki, Alisher Navoiydan avval ham o’z g’azallariga irfoniiy ma’nolarni mahorat bilan singdirgan – Lutfiy, Atoyi kabi turkiygo’y shoirlar bo’lgan, biroq arab mumtoz adabiyotining yirik vakili Ibn ul-Foriz, Payg’ambarimiz Muhammad (alayhissalom) ning o’n birinchi avlodlari bo’lgan mutasavvuf Abdulqodir Jiyloniy, fors

adabiyotining yetuk namoyandalari hisoblangan Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy kabi bu maydonning eng oldi vakillari bilan tenglasha oladigan yagona ijodkor Alisher Navoiy edi. Shoir o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida yetti yuz ellik baytdan ortiq bo'lgan, tasavvufiy ma'nolarning adabiy qomusi sifatida shuhrat qozongan "Toiya" qasidasi muallifi shayx Ibn ul-Foriz haqida ma'lumotlar beradi. Jumladan, asarda qasida to'g'risida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Va Shayx Ibn Forizg'a devoni she'rdur arabiy til bilakim, mushtamildur, maorif uyunig'a va latoyif fununig'a. Va bir qasida andin "Toiyya" durkim, yetti yuz ellik bayt kamin besh bo'lg'aykim, so'fiy mashoyixlari va fuzalo hamda ulamo va ahli haqiqat orasida shuhrat tutubtur. Va sayr-u sulukdin so'ngra ulumi haqoyiq va maorifi yaqiniya daqoyiqidin o'z zavqi birla, kummal avliyo va akobir mashoyix muhaqqiqlari azvoqiding jam' qilibdur. Va bu nav' nazmi royiq-u foyiq har kishiga muyassar bo'lmag'ay. Va hech kishiga ahli fazl-u hunardin maysur emas, balki aksar nav'i basharg'a maqdur bo'lmag'ay. Va Shayxning fazoyil-u kamoloti va ulum-u maorifi a'lo marotibdindur, balki karomat-u viloyati a'lo darajadadur. Va ta'rifdin mustag'niydur"[1.387]. Bu shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy tasavvufning ildizi bo'lgan arab mumtoz adabiyoti bilan yaqindan tanish bo'lgan va ularning ko'ngillaridagi zavq-u shavqni qanday ramzlardan foydalanib ifodalab berishlarini ham yaxshi anglagan. Islomiy she'riyatda majozga haqiqat ko'prigi deb qaraladi, xususan Navoiy «Nasoyimul muhabbat» asarida ustoz Jomiydan ushbu hikmatni keltiradilar: «Al majazu qantaratul haqiqah» (ya'ni, majoz, obrazli tafakkur haqiqatning ko'prigidir). Asarlarda ma'nolarni to'g'ridan-to'g'ri bermay, ularni turli ramzlar bilan ifodalash tobeinlar davridan beri qo'llanib kelinayotgan usul sanaladi, xususan, mashhur mutasavvufa ayol Robiya Adaviyaning quyidagi jumalari bunga yaqqol dalildir: "Mahbub, may, kosa va Robiya" (ya'ni men ularning to'rtinchisiman). Misradan "kosa" va "may" istilohlari o'z ma'nosida emas, balki majoziy ma'noda istifoda etilayotgani anglashiladi. Abdurahmon Jomiyning aytishicha, bunday yo'lni birinchi bo'lib tutgan shaxs Zunnun Misriy bo'lgan [2.]. Bu an'anani Navoiy ham asarlarida o'ziga xos usulda davom ettirib, azaldan mavjud bo'lgan ramzlardan foydalangan holda g'azallariga yangicha ma'nolar tizmasini kiritadi. "Xazoyin ul-maoniy"ning devonidagi ko'plab g'azallarining botiniy ma'nolarini anglash uchun mayoq hisoblangan hamda fotiha (ochuvchi) g'azal deya e'tirof etilgan g'azalidagi ushbu baytga e'tibor qaratamiz:

"Sen gumon qilg'andin o'zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin nafaqat bu mayxona ahlin, zohido"[3.23].

(ey zohid, ya'ni zohirparast musulmon sen o'ylagandan boshqa jom va may mavjud, sen bilmasdan ishq ahlini – Allohning do'stlarini rad qilib qo'ymagin)

Irfoniy asarlarda mutasavvuf ijodkorlar nega ma'nolarni o'z holicha bermay, ularni ramzlar orqali yuksak saviyada bayon qilganlarining bir qancha sabablari bor. Bu borada Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o'zining "Tasavvuf haqida tasavvur" kitobida quyidagilarni yozadi: "O'z she'rlari va gaplarida "qadah", "may", "laylo" kabi istilohlarni ishlatgan so'fiylar ham ko'p bo'lgan. Bunday istilohlarni so'fiylarning o'zlari "ramz", "ishora" va "lag'z" deyidilar. Ahli tasavvufning bunday uslubni qo'llagan sabablari haqida Misrdagi "Ashiyrai Muhammadiya" tariqati shayxi Muhammad Zakiy Ibrohim jumladan, quyidagilarni aytadi: "Ba'zi so'fiylar o'z shavq-u zavqlarini, ehsoslarini ifoda etish uchun kinoya va istiora yo'li ila ramz, ishora va lag'zlarni ishlatganlar. Ular shu ish bilan tanilib, "ahli ishora" nomini ham olganlar. Ularning bunday qilishlarining bir necha sabablari bor:

1. Odatdagi so'z va iboralar ularning shuurlari, ehsoslari va shavq-u zavqlarini to'la ifoda qilishga kamlik qilgani.

2. Har bir ilmning o'ziga xos istilohlari bor. So'fiylar ham o'zlariga xos istilohlarni ishlatmalar nima bo'libdi?!

3. Zulm va istibdod sharoitida, ochiq gap uchun jazolanish muhaqqaq bo'lib turganda, har kim o'zligini bildirishi lozim bo'lganda, so'fiylar tomonidan mazkur uslub qo'llangan"[4.248]. Demak, ushbu iqtibos orqali quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Oshiqning ko'nglida kechayotgan tuyg'ular, zikrdan so'ng hosil bo'ladigan Allohning mushohadalari yuqori darajadagi tuyum bo'lgani sabab uning ifodasi ham yuqori usulda zohirda namoyon bo'ladi.

2. Orifona usulda qalam tebratgan shoirlar o'zlarining zavqini shu istilohlar bilan qondirganlar.

3. Ular o'zlarining botiniy holatlarini bu hislardan yiroq zohirparastlardan yashirganlar, bitilgan asarlarni har kim ham emas, balki Islom shariatidan xabardor bo'lgan, ramzlar tilini anglay oladigan darajadagi kishilar o'qib zavq olishlarini istashgan.

4. Tasavvuf ahli o'zlariga xokisorlikni kasb qilganidan Allohga bo'lgan muhabbatlarini butxona, mayxona, dayr, zunnor kabi dunyoviy istilohlar orqali ifodalamoqchi bo'ladilar ham bu bilan o'zlarini riyodan uzoq tutadilar.

“Har bir ilmning o‘ziga yarasha atamaları bo‘lganidek, tasavvufning ham o‘ziga xos atamaları bo‘lishi tabiiy. Ibn Sinoning so‘zlarini tushunish uchun tabobat atamalarini, Forobiyning fikrlarini ilg‘ash uchun falsafiy iboralarni, muhaddislarning so‘zlarini anglash uchun hadis ilmi istilohlarini bilish lozim bo‘lganidek, tasavvuf ahlining so‘z-iboralarni to‘g‘ri tushunish uchun ham ularning o‘ziga yarasha atamalarini tushunish kerak bo‘ladi”[2]. Alisher Navoiy g‘azallarida turli ko‘rinishlarda tasvirlanadigan ayol go‘zalligi, nafosati, noz-u karashmalari ham majoziy ma‘noda bo‘lib, aslida ular orqali ijodkor qalbning eng intim, eng nozik kechinmalarini, orifona qarashlarini go‘zallik ramzi bo‘lgan ayol va uning uzvlari – qosh, ko‘z, lab, yuz orqali ifodalamoqchi bo‘ladi. Bu mushtaraklikni esa g‘azal janrining lug‘aviy ma‘nosi bilan bog‘lash mumkin. “G‘azal (ar.: ayollar bilan suhbat qurishni sevmok, ularga ishqibozlik qilmoq) – lirik she‘riyat tarixida yetakchi o‘rin tutgan janr”[5.287]. Shuningdek, g‘azal janrining mavzu ko‘lami to‘g‘risida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “G‘azalning mazmuni, mavzuyi o‘rta asrlardagi poetikaga doir asarlarda ishq va oshiqlik kechinmalari tasviridan iborat deb hisoblangan. Lekin poetikaga doir ba‘zi asarlarda g‘azal tematika nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratilgan: oshiqona g‘azal va orifona g‘azal (falsafiy-tasavvufiy ruhdagi g‘azallar). Biroq amalda uning tematik doirasi kengayib borib, falsafiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy masalalarni ham qamrab olgan[5.288]. Dastlab g‘azal janri o‘z lug‘aviy ma‘nosiga muvofiq ravishda ishqona kechinmalarni ifodalash uchun xoslangan bo‘lsa, g‘azalning keyingi taraqqiyoti mobaynida, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida uning mavzu ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Xususan, shoir qalamiga mansub g‘azallarni shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Hamd g‘azallar;
2. Na‘t g‘azallar;
3. Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g‘azallar;
4. Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g‘azallar;
5. Axloqiy-ta‘limiy mavzudagi g‘azallar;
6. Ijtimoiy mavzudagi g‘azallar;
7. Rindona g‘azallar;
8. Tabiat tasviri aks etgan g‘azallar;
9. Hajviy mavzudagi g‘azallar[6.294].

Ushbu turlarning deyarli barchasida g‘azalning o‘z lug‘aviy ma‘nosi bilan uyg‘un kelishi saqlab qolingan bo‘lishiga qaramay, aytilayotgan fikrning botiniy ma‘nosini tushunish uchun g‘azalning istilohiy ma‘nosini bilish talab etiladi. Xususan, orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g‘azallarda zohiran oshiq yigitning o‘z ma‘shuqasiga bo‘lgan dunyoviy ishq tushunilsa ham botiniy jihatdan Haqqa bo‘lgan muhabbat nazarda tutiladi. Bunday g‘azallarda qo‘llanilgan atamalar ham zohiriy ma‘noda emas, botiniy ma‘noda anglashilsagina, shoir ko‘zlagan maqsadni ilg‘ash mumkin bo‘ladi. Navoiyning oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g‘azallarida ham yuqorida aytib o‘tilgan Haqqa bo‘lgan muhabbat namoyon bo‘ladi. Navoiyning asl muddaosi ishq ilohiy bo‘lganini quyidagi baytlarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Oshiqi, murodi kom bo‘lg‘ay,
Oshiqlik anga harom bo‘lg‘ay[7.262].

Yoki

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatgabu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatga yo‘l topar oshiq,
Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur[8.520].

Qolaversa, navoiyshunos Yoqubjon Is‘hoqov ta‘kidlaganidek, Navoiy ijodida “majoziy ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Balki majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bir bosqich sifatida baholanadi”[9].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoiy she‘riyatidan quyidagi bir bayti tahlil qilinsa, tom ma‘noda uning irfoniy mohiyatga yo‘g‘rilgan misralar ekani anglanadi:

Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab,
Xiromi sur‘atidin gul uza xo‘ydin gulob aylab[10.51].

Mazkur misralarda zohiran bir gul yuzli qizning oshiq uyiga shitob bilan kelgani tasvirlangan va qiz yuzidagi reza ter atirgul yaproqlaridan olinadigan maxsus suyuqlik – gulobga muqoyasa qilingan. Irfoniy ma‘noda esa gulrux bu – Alloh zikridan hosil bo‘ladigan mushohadadir. Husaynixon Yahyo “Navoiyni qachon tushunamiz?” maqolasida Muhammad Aliy Tahonaviyning “Kashshaf istilohat al-funun”, Abdurazzoq Koshoniyning “Istilohat as-Sufiyya”, Doktor Rafiq Ajamning “Mavsu‘at mustalihat at-tasavvuf al-islamiy” asarlaridan foydalanib baytda ishlatilgan so‘zlarning tasavvufiy ma‘nolarini

quyidagicha sharhlaydi:

“Kulba – solikning qalbi; (solik tariqat yo‘lini tanlagan shaxs);

Gulrux (gulyuz) – shuhud olami, ya‘ni Alloh taoloning zotini mushohada qilish holati;

Gul uza hay (yuzdan oqqan ter) – g‘aybiy ilhom”[2]

G‘azallarda yorning go‘zalliklari turlicha tasvirlanishi mushohadaning kishi qalbida turlicha namoyon bo‘lishi bilan aloqador. Baytda aynan tun payti Allohni zikr qilish va uning ma‘rifatini hosil qilishga intilishning sababi sifatida mashhur muhaddislardan rivoyat qilingan quyidagi mazmundagi hadisni keltirish mumkin: “Albatta, Alloh taolo har kuni kechening uchdan biri qolganda dunyo osmoniga tushadi va tong otguncha “tavba qiluvchi bormi – tavbasini qabul qilaman; istig‘for aytuvchi bormi – mag‘firat qilib, gunohini kechiraman; so‘rovchi bormi – so‘raganini beraman”. Buning ustiga tunda qilingan ibodat bandada Allohga nisbatan qurbatni hosil qiladi va gunohlarni ketkazadi, fazl-u karamga sabab bo‘ladi. Ko‘rinadiki baytda oshiq qalbiga tashrif buyurgan gulrux, aslida, Allohning zikri natijasida paydo bo‘lgan ruhiy holat, botiniy kechinmadir. Yuqoridagi baytda ayol timsoli orqali majoz qo‘llangan bo‘lsa, quyidagi baytda ayol uzvlari orqali tasavvufiy ma‘nolar ifodalangan:

Oraz-u la‘li xayoli birla sen to xastasen,

Naf etar’ go‘yoki bu za‘fingg‘a gulqand, ey ko‘ngul [11.344].

Osiyo muzeyida saqlanayotgan tasavvuf she‘riyati atamaları lug‘atida (A. – Nov.29(B 1810),246 – 251a majmuasidagi muallifi noma‘lum lug‘at) bir qancha timsollar ma‘nosi izohlanadi, jumladan unda “yuz” – “oraz” so‘ziga quyidagi ta‘rif berilgan: “Yuz deb xolis (hech narsaga aralashmagan) sof tajalliyotga (jilvalanishga) aytiladi. Shuningdek, yuz va ruxsor deb husni zotiy va tajalliyoti jamoliyning zuhur bo‘lish joyiga aytiladi. “Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug‘ati”da esa ushbu so‘zga shunday izoh beriladi: “Oraz – tas. Vujud nurlarining mazhari.

Orazin yopqach ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.

Alisher Navoiy [12.239]”

Demak, “yuz” so‘zi ilohiy nur jilva qiladigan, zuhur bo‘ladigan joyga nisbatan istifoda etiladi. Misrada la‘l so‘zi istioraviy tarzda labni ifodalab kelmoqda, bu so‘zning tasavvufiy ma‘nosi esa quyidagicha: “Lab – fors. 1. Dudoq. 2. maj. Kalom, so‘z. 3. tas. a. Mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas. Ashyolar vujudiga jon va fayz bag‘ishlovchi ilohiy so‘z, mo‘jiza. Lab jonni quvvatlantiruvchidir. b. Anbiyoga ma‘naviyat olamidani malaklar vositasida, avliyoga esa ilhom orqali nozil bo‘ladigan kalom. d. Pirning ilohiy ma‘rifatga limmo-lim so‘zi va uning mazmuni. Lab suvi – obi hayot, ishq-u muhabbat chashmasidir.

Lablaringdin ruhparvar nutq zohirdur magar,

Ruhi qudsiy obi hayvon ichra orom aylamish.

Alisher Navoiy[12.239]”

Demak, oshiq Yorning tajallisi va rahmoniy nafas xayolida xasta; bu kasallikning davosi nima ekani esa keyingi misrada quyidagicha tavsiflanadi:

Naf etar go‘yoki bu za‘fingg‘a gulqand, ey ko‘ngul.

(Go‘yoki bu kasalligining davosi gulqanddir, u senga ijobiy ta‘sir o‘tkazib, foyda keltira oladi, ey ko‘ngil). “Gul” so‘zining tasavvufiy ma‘nosi esa “Ko‘ngilda vujudga kelgan bilimning natijasi va mevasi. Ro‘zbehon Baqliy “Qizil gul Allohning muhabbatidan bir parchadir” hikmatiga urg‘u bergan. Tasavvuf adabiyotida go‘zal gul yaproqlari va tikanlari bilan ilohiy jamol va jalolni eng mukammal tarzda aks ettirgan. Gulni sevuvchi bulbul esa shavq sohibi ruhning timsolidir. Gulda noz bor, bulbul esa niyoz holidadir. Gul ba‘zan Alloh go‘zalligining, ba‘zan Hazrati Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) timsolidir. Xushbo‘y hid taratgani uchun Hazrati Muhammadning (sollallohu alayhi vasallam) teriga ham gul deyiladi(ST).

Chaman otashgohiga otashin guldin chu o‘t solding,

Samandardek ul o‘tdin kulga botti bulbuli shaydo.

Alisher Navoiy[12.98].

Demak, Yorning mushohadasi bilan xasta bo‘lgan oshiq uchun ko‘ngilda vujudga kelgan bilimning natijasi hisoblangan gul (gulqand) davo bo‘la oladi. Dardi faqat Alloh bo‘lgan oshiqning kasalligiga davo bu dunyoda yo‘q, u faqat Alloh jamoliga yetishgandagina o‘zidagi xastalikdan qutula oladi.

“Robiya qo‘lidagi chelakka ishora qilibdi:

– Do‘zaxdagi o‘tni o‘chirmoqchiman.

Yo‘lovchilar ko‘zlarini kattaroq ochib, “astag‘firulloh” degancha so‘rashibdi:

– U holda qo‘lingdagi mash‘ala nechun?

– Bu mash‘ala bilan jannatni yoqmoqchiman.

Yo‘lovchilarning ko‘zlaridan qoni qochib, qichqirishibdi:

– Allohdan mag‘firat so‘rab iltijo qil, ey badbaxt ayol, aks holda kofir sanaladiganlardan bo‘lib qolasan qolasan.

– Yo‘q, azizlarim, sizlar meni noto‘g‘ri tushundingizlar. Men kofir emasman. Alloh taolo bilan bandalar o‘rtasidagi bu ikki pardani yo‘qotmoqchiman, xolos, toki bandalar Alloh taologa do‘zax o‘tlarida kuyishdan qo‘rqqani yoki jannat iqbollaridan umidvor bo‘lgani uchun emas, balki Uning Alloh ekanligi, Biru Borligi va Boqiy Go‘zalligi uchun ibodat qilsinlar [13.44-45]. Shu sababli ham mumtoz asarlarimizda qo‘llanilgan yorning jamoli aslida Haqning jamoli va bu jamolni ko‘rgan asar qahramonlari har doim sarxush bo‘lib hushlarini yo‘qotadilar.

Tasavvufda oshiqnlarni “dard ahli” deb ham atashadi, ya‘ni ular shunday kasallikka duchor bo‘lganlarki, buning davosi faqatgina Allohning jamoli, bu dunyoda esa ular shu dard bilan yashaydilar. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida Layli va Majnun haqidagi hikoyatiga keltirilgan xulosada ham zaif va kasal oshiqqa yagona davo Alloh zikri ekanligi borasida quyidagicha bayt keltiriladi:

Oshiqqa garchi za‘f-u marazlikdurur mijoz,

Ma‘shuq zikri ul marazig‘a erur iloj [14.69].

(Mijozi zaif va kasal oshiqqa yagona davo – ma‘shuqni yodlashdir.)

Qiyoslaydigan bo‘lsak, Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy ijodida ham shunday misralar mavjudligini ko‘ramiz:

Ishq dardi-la xusham, el chek ilojimdan tabib

Qilma darmon kim, halokim zahri darmonimdadir.

(Men ishq dardi bilan xushman, meni davolashdan voz kech ey Tabib, bu Darmon men uchun zahardir!).

Alisher Navoiy o‘zining “Jilvamu aylar qizil to‘n birla har yon ul pari” deb boshlanuvchi g‘azali xotimasida ham lab timsoli va yorning la‘lgun ko‘ylagi tasviri orqali irfoniy ma‘no ifodalanganini ko‘rish mumkin:

Ul pariy la‘lida joning, ey Navoiy, bo‘ldi mahv,

La‘lgun kisvatda mahv etgandek o‘zni ul pariy [3.442].

Pari o‘zini la‘l rangli (qizil) libos ichiga yashirgani kabi oshiqning joni ham jonon la‘li (qizil labi) ichiga yashirilib g‘oyib bo‘lgan. Boshqacha aytganda, oshiq va ma‘shuq birlashib ketgan. Bu o‘rinda yana bir izohga ehtiyoj bor: o‘quvchida qanday qilib bir odam ikkinchi odamning labida yo‘qolishi mumkin, degan savol tug‘ilishi mumkin. Bunga javob shuki, la‘l – lab deganda tasavvufda ma‘shuqa so‘zining botini, nozik ma‘nosi, shuningdek, ilohiy nafas, yo‘qlikdan borliqni vujudga keltirgan Alloh kalomi anglashiladi. Ya‘ni bu Kalom barchani qamrab oladi, vali zotlar mujdasi bilan oshiq vujudiga singib, uning jonini egallab oladi. Baytda la‘l, la‘lgun kisvat, pari timsollari orifona ma‘noni ifodalash uchun vosita vazifasini bajarib kelgan [9]. Demak, ushbu baytda ham la‘l timsoli orqali oshiqning Alloh Kalomi ma‘nolariga g‘arq bo‘lgani, o‘zini bu maoniy daryosida mahv qilgani ifodalangan.

“Nizomiddin” – “Dinning nizomi” deb e‘tirof etilgan Navoiyning ijodini ilohiy kitob hisoblangan Qur‘oni Karimdan ayro tasavvur qilish mushkul. Zotan, ijodkorning o‘zi ham “Nazm-ul Javohir” asarida buni shunday ta‘kidlaydi: “Lojaramkim, ko‘prak avqotim Kalomulloh ishtig‘oli va aning tafosiri qiylu qoli bila o‘tar erdi, to ahodis daryosig‘a g‘avs qilur erdim va andin garonmoya gavharlar ilikka kivurur erdim” (Hech shak-shubha yo‘qki, mening ko‘p vaqtim Kalomulloh bilan, ya‘ni uning tilovati bilan hamda tafsirini, ma‘nolari tarjimasini o‘rganish bilan o‘tar edi, agar men hadis daryosiga sho‘ng‘isam, undan qimmatbaho gavharlarni qo‘limga olib chiqar edim)” [15.155]. Baytdagi mazmunni yanada teranroq anglash uchun “Qur‘on” istilohining tasavvufiy ma‘nolariga e‘tibor qaratamiz: “Qur‘on – 1. Hazrat Rasulullohga (sollallohu alayhi vasallam) tushirilgan eng so‘nggi ilohiy kitob. 2. tas. Jam‘ va ijmol maqomi, muqobili esa furqon va tafsil maqomidir. 3. a. Komil inson. Chunki olamda tarqoq o‘laroq mavjud bo‘lgan narsalar insonda jam‘ holatida bor. b. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam). “Qur‘on o‘qiganingda sen Qur‘ondagi Qur‘on bo‘l”, “Allohning kalomi bo‘lgan Qur‘on Uning sifatidir. Hazrat Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) ham Haqning sifatidir”, deydi.

Bu nav‘ o‘ldum jamoling mus‘hafining sirridin ogah,

Ki, fihrastida keldi ikki qoshing ikki bismillah.

Alisher Navoiy [12.262].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodini tushunmoq uchun navoiyshunos tadqiqotchi

Hasanxon Yahyo ta'kidlaganiday ijodkor g'azallarining bitilishiga asos bo'lgan ilmlarni – Islom shariati ilmini, tasavvuf ilmini daqiq joylarigacha o'rganmoq lozim. Bu ilmlar narvon vazifasini bajarib, Navoiy g'azallarining botiniy, asl ma'nolarini anglab, zavq olishimizga, ayni vaqtda amal qilishimizga turtki bo'ladi. Biz bemalol Alisher Navoiyni buyuk mutasavvuf, yetuk din olimi va betakror shoir deb ayta olamiz. Uning g'azallaridagi zohiran qaraganda dunyoviy muhabbat kuylangandek ko'rinadigan baytlarining ham botiniga nazar tashlansa, Navoiyning asl muddaosini anglash oson kechadi va bu uning Islom shariatini vaznga solgan din shoiri ekanini isbotlay oluvchi dalil sanaladi. Bu esa mumtoz adabiyotimizdagi ko'plab asarlar, xususan, g'azallar kitobxonni ma'naviy jihatdan kuchli qilib tarbiyalashda muhim vositalardan biri ekanligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 17-tom. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Husaynixon Yahyo. Navoiyni qachon tushunamiz? // Yoshlik. – 2013. – № 2.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 3-tom. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: Fan, 1988.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2025.
5. Yoqubjon Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 9-tom. Xamsa. Layli va Majnun. – Toshkent: Fan, 1992.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 6-tom. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan, 1990.
9. Majidova M.A. Majoz va haqiqat munosabatida ayol obrazining irfoniy vazifasi // Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Vol. 2. – No. 10. – P. 263–271.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 2-tom. Navodir un-nihoya. – Toshkent: Fan, 1987.
11. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 1-tom. Badoye' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987.
12. Avaznazarov O. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lug'ati. – Toshkent: Tavfiqnashr, 2025.
13. Shimmel A. Jonon mening jonimda / so'zboshi R. Bindzayl; olmon tilidan Y. Parda tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 1999.
14. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami: 20 tomlik. 14-tom. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1998.